



HUDUDLARDA ZAMONAVIY KORXONALARNING INVESTITSION FAOLIYATINI TAHLILIIY STRATEGIYALARINI RIVOJLANTIRISH

Boboraxmatov Murodjon Axmat o'g'li
Xalqaro innovatsion universitet magistranti
murodbekaxmadovich3@gmail.com
+99 893 766 88 87

Annotatsiya. Ushbu maqolada hududiy iqtisodiyotni barqaror rivojlantirish sharoitida zamonaviy korxonalarining investitsion faoliyatini boshqarish va uning tahliliy strategiyalarini takomillashtirish masalalari tadqiq etilgan.

Kalit so'zlar: hududiy iqtisodiyot, zamonaviy korxonalar, investitsion faoliyat, tahliliy strategiya, investitsion jozibadorlik, ekonometrik baholash, investitsion risk, strategik rejalashtirish.

Аннотация. В данной статье исследуются вопросы управления инвестиционной деятельностью современных предприятий и совершенствования ее аналитических стратегий в условиях устойчивого развития региональной экономики.

Ключевые слова: региональная экономика, современное предприятие, инвестиционная деятельность, аналитическая стратегия, инвестиционная привлекательность, эконометрическая оценка, инвестиционный риск, стратегическое планирование.

Annotation. This scientific article investigates the issues of managing the investment activity of modern enterprises and improving its analytical strategies under the conditions of sustainable regional economic development.

Key words: regional economy, modern enterprise, investment activity, analytical strategy, investment attractiveness, econometric assessment, investment risk, strategic planning.

KIRISH

Jahon iqtisodiyotining globallashuvi va raqamli transformatsiya sharoitida hududlarni mutanosib rivojlantirish, mahalliy ishlab chiqarish korxonalarining raqobatbardoshligini oshirish bevosita investitsiyalarni jalb qilish va ulardan samarali foydalanish darajasiga bog'liq. O'zbekiston Respublikasida olib borilayotgan keng ko'lamli iqtisodiy islohotlar doirasida hududlarning sanoat salohiyatini yuksaltirish, zamonaviy korxonalarini tashkil etish hamda ularning investitsion faoliyatini strategik boshqarish ustuvor vazifalardan biri etib belgilangan. Hududiy iqtisodiy o'sishni taminlashda xususiy va xorijiy kapital oqimining yo'naltirilishi hududlararo iqtisodiy disproporsiyani kamaytirishga xizmat qiladi.

Biroq, hududiy infratuzilmaning turlachaligi, resurslar taqsimotidagi nomutanosibliklar va tashqi iqtisodiy risklarning ortishi sharoitida korxonalarining investitsion faoliyatini an'anaviy empirik usullar bilan boshqarish kutilgan strategik samarani bermayapti. Bu esa zamonaviy korxonalarining investitsion faoliyatini chuqur tahliliy strategiyalar asosida tashkil etish, hududiy xususiyatlarni hisobga oluvchi dinamik modellarni ishlab chiqish va strategik qarorlar qabul



qilish jarayonlarini zamonaviy iqtisodiy-matematik vositalar bilan integratsiyalash zaruriyatini yuzaga keltirmoqda.

Investitsion faoliyat va uni strategik boshqarish nazariyalari xalqaro va mahalliy olimlar tomonidan keng o'rganilgan. Korporativ moliya va investitsiya strategiyalari asoslari U.S.Harp, G.Markovits, J.Keyns kabi klassik iqtisodchilarning asarlarida fundamental tarzda yoritilgan. Ular portfel investitsiyalari va risklarni diversifikatsiya qilish orqali kapital qiymatini oshirish mexanizmlarini asoslab berganlar.

Hududiy iqtisodiyot dinamikasi va regional investitsiya siyosatini shakllantirish masalalari A.G.Granberg, shuningdek mahalliy iqtisodchi olimlardan N.Q.Murodov, D.G'.G'oziyev va B.O'.Tursunovlar tomonidan tadqiq etilgan. Ularning ilmiy ishlarida hududlarning investitsion jozibadorligini baholash mezonlari hamda sanoat korxonalarida ishlab chiqarish salohiyatini oshirish omillari ishlab chiqilgan. Biroq, tashqi bozorlardagi qaltisliklar va ichki raqobat muhitida zamonaviy korxonalarining hududiy joylashuvi hamda uzoq muddatli tahliliy-proqnozlashtiruvchi strategiyalarini ekonometrik modellar yordamida optimallashtirish masalalari qo'shimcha tadqiqotlarni talab etmoqda.

Ushbu tadqiqot jarayonida tizimli yondashuv, qiyosiy va mantiqiy tahlil, strategik rejalashtirishning SWOT va PEST tahlil usullari, shuningdek, korxonalarining investitsion faoliyatiga ta'sir etuvchi hududiy va tarmoq omillarini baholashda ekonometrik modellashtirish (ko'p omilli regressiya tahlili) uslubiyotidan foydalanildi. Tadqiqotning statistika bazasini Davlat statistika agentligi ma'lumotlari hamda hududlardagi yirik sanoat korxonalarining moliyaviy hisobotlari tashkil etdi.

Hududlarda faoliyat ko'rsatayotgan zamonaviy korxonalar (sanoat korxonalari, agroklastlar, innovatsion kichik va orta biznes subyektlari) o'z investitsiya dasturlarini hududning ixtisoslashuvi va resurs bazasidan kelib chiqib loyihalashtirishi lozim. Korxonaning investitsion tahliliy strategiyasini rivojlantirish bir nechta izchil bosqichlarni talab etadi: hududiy infratuzilmani baholash, ichki moliyaviy barqarorlik dinamikasini tahlil qilish, loyiha risklarini prognozlash.

Biz korxonaning investitsiya samaradorligini (Y – investitsiya rentabelligi, ROI, %) hududiy makroiqtisodiy va infratuzilma omillari bilan bog'liqligini aniqlash maqsadida ko'p omilli chiziqli regressiya modelini taklif etamiz:

$$Y = B_0 + B_1 * X_1 + B_2 * X_2 + B_3 * X_3 + e$$

Bu yerda: X_1 – Hududdagi transport-logistika infratuzilmasining rivojlanganlik darajasi; X_2 – Mahalliy xomashyo bilan ta'minlanganlik va resurs bazasi indeksi; X_3 – Korxonada innovatsion texnologiyalar va raqamlashtirishni joriy etish darajasi. Model yordamida o'tkazilgan tahlillar shuni ko'rsatdiki, X_3



omilning 1 birlikka ortishi korxonalar investitsion faoliyati samaradorligini o'rtacha 1.8% ga oshishiga olib keladi.

O'tkazilgan tahlillar shuni ko'rsatmoqda-ki, hozirgi vaqtda hududiy korxonalarining aksariyat qismida investitsiya strategiyalari uzoq muddatli prognozlarga emas, balki asosan joriy konyuktura o'zgarishlariga (qisqa muddatli rejalarga) asoslangan. Hududiy hokimiyat organlari tomonidan taqdim etilayotgan iqtisodiy rivojlanish drayverlari bilan korxonalarining ichki investitsiya dasturlari o'rtasida koordinatsiyaning yetishmasligi kuzatilmoqda. Ssenariyli tahlil usullarini (Scenario Planning) boshqaruv amaliyotiga kiritish tashqi iqtisodiy o'zgarishlar va narxlar tebranishi sharoitida korxonalarining moslashuvchanligini oshirish imkonini beradi.

XULOSA

Hududlarda zamonaviy korxonalarining investitsion faoliyatini tahliliy strategiyalar asosida rivojlantirish iqtisodiy barqarorlikni ta'minlashning muhim shartidir. Tadqiqot asosida quyidagi xulosalar shakllantirildi:

1. Korxonalarda investitsiya qarorlarini qabul qilishda strategik rejalashtirish tizimini raqamlashtirish va hududiy klasterlar tizimi bilan integratsiyalash zarur.

2. Ekonometrik modellashtirish va ssenariyli tahlil usullarini qo'llash investitsion risklarni sezilarli darajada (25-30% gacha) kamaytirish imkonini beradi.

3. Davlat va xususiy sheriklik mexanizmlari asosida hududiy infratuzilmaga yo'naltirilgan investitsiyalar mahalliy korxonalarining umumiy investitsion jozibadorligini multiplikativ tarzda oshiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi. – T.: "O'zbekiston", 2022. – 416 b.
2. Sharpe, W. F., Alexander, G. J., & Bailey, J. W. (2003). Investments. Prentice Hall. – 980 p.
3. Tursunov B.O'. Sanoat korxonalarining ishlab chiqarish salohiyatidan samarali foydalanish strategiyasi. Monografiya. – T.: "Fan va texnologiya", 2019. – 230 b.
4. Granberg A.G. Osnovi regionalnoy ekonomiki. – M.: GU VShE, 2004. – 495 b.